

MUALLIF NUTQI AGNONIMLARI (Siddiq Mo‘min ijodida misolida)

D.M. Yuldasheva

dotsent

Farg‘ona davlar universiteti

Z.I. Usmonova

Oltiariq pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Siddiq Mo‘min she‘rlarida qo‘llangan agnonimlarning tadqiqiga qaratilgan. Unda shoirning agnonimlardan foydalanish mahorati va ularning nutqiy ahamiyatiga bog‘liq tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: agnonim, arxaizm, istorizm, ixtisoslik, leksika, dialektalizm, jargon, neologizm.

Bugungi kun tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar tabora dolzarb kasb etmoqda. Muayyan bir badiiy asar yoki ijodkor poetik nutqining lingvistik tahlili, bizga yangi muloqot lug‘atini yaratish imkonini hosil qiladi. Mahoratli ijodkorlar o‘zining leksik hazinasiga ega, bu hazina tilimizning bebaho til sandig‘idan injularni saralab, obraz yaratish, voqelikni jonlantirish uchun asosiy vositadir.

Kitobxon biror bir badiiy asarni mutolaa qilar ekan, unda uchragan ba‘zi tushunarsiz yoki uning uchun notanish bo‘lgan so‘zga duch keladi. Bu jarayon kitobxonni o‘sha jumlaning qayta o‘qishga, mavhumlikka oydinlik kiritishga, tushunmagan so‘zning ma‘nosini anglashda undaydi. Tilshunoslikda esa matnning tushunarsiz, mavhum bo‘lib kelgan so‘zlari agnonimlar deb ataladi.

Iste‘dodli shoir va olim Siddiq Mo‘min ijodida ham agnonimlar ma‘lum bir poetik vazifani bajarib, kitobxon e‘tiborini tortadi, fikrlashga undaydi. Agnononim atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, bilinmagan, tushunarsiz, noma‘lum nom degan ma‘nolarni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o‘sha tildagi noma‘lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo‘lgan so‘zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi.”¹

¹ V.V.Morkovkin, A.V. Markovkina. Русские агнонимы: понятие, состав и мысловое разнообразие.– Москва. 1997.

Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi.¹ , Yani buni tildan foydalanuvchilarning lisoniy layoqati bilan bog‘liq hodisa deb qabul qilish mumkin.

Agnonimlarning paydo bo‘lishi uchun ikkita shart mavjud: vaqtinchalik va ijtimoiy. Ba’zi so‘zlar ma’lum vaqt oralig‘ida kam qo‘llanilishi sababli tushunarsizdir. Bu yangi so‘zlar (tashkilotchi, lizing) bo‘lishi mumkin, ular keyinchalik hammaga ma’lum bo‘lishi mumkin. Vaqtinchalik eskirgan so‘zlar ham shu guruhga kiradi. Anonim so‘zlarning paydo bo‘lishining ikkinchi sharti - bu shaxsning o‘tib-ulg‘ayishi va ta’lim-tarbiya oladigan ijtimoiy mutidir.²

Mutaxassislar fikridan kelib chiqib, agnonimlar so‘zlar qatlamiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: arxaizm, istorizm, dialektalizm, atamalar, ma’lum bir ixtisoslikka oid so‘zlar, jargonlar, neologizm va boshqalar.

Mutaxassislar ma’lum leksik-frazeologik birlik agnonim sifatida qabul qilinishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak, deb hisoblashadi:

1. Bir tilda so‘zlashuvchilarga butunlay tushunarsiz bo‘lgani holda iste’molda qaysidir darajada mavjud bo‘lsa: olato‘g‘anoq (olato‘g‘anoq olg‘ir bo‘lsa, qayrchug‘aydek bo‘lmas) .

2. Bir tilda so‘zlashuvchilar tomonidan eshutilgan, lekin to‘liq anglashilmagan bo‘lsa: kvalifikatsiya, fauna.

3. Til egasi mayyan so‘zni qaysidir sohaga tegishli ekanligidan habardor, “buni faqat ma’lum bir soha egalari biladi” degan fikrda, lekin aniq aytib berolmagan bo‘lsa: gistologiya, sistologiya.

4. Til egasi muayyan soz‘ning qandaydir predmet ekanligini bilgani holda uning aynan nima ekanligini aytib bera olmasa: angiz, kofein.

5. Til egasi muayyan soz‘ning xususiy tomonlarini bilgani holda uning xususiy tomonini aytib bera olmasa: sakura – daraxt, lekin qanday daraxt, qayerda o‘sadi, shakli-shamoyili qanday?

Siddiq Mo‘min o‘z ijodida agnonimlarni shunday mahorat bilan qo‘llaydiki, har bir agnonimdan bilan unga ma’nodosh so‘z yoki izoh birga keladi. Bu jarayon esa kitobxonda tug‘ilgan savolga osonroq yechim topish imkonini beradi. Natijada kitobxon asardan estetik zavq olish bilan birga, uning lug‘atida yangi so‘z, tafakkurida yangi tushuncha hosil bo‘ladi.

Do‘stlar, yangi yilimiz

Endi topdi *bidoya*.

¹ Yo‘ldhoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. 67-bet

² Дондокова, А. Б. Агнони́мы в произведениях А. П. Чехова и Л. Н. Андреева, русских писателей конца XIX — начала XX века / А. Б. Дондокова, Ц. Л. Дондокова. — Текст : непосредственный // Юный ученый. — 2022. — № 1 (53). — С. 4-11. — URL: <https://moluch.ru/young/archive/53/2732/> (дата обращения: 23.08.2023).

Qutlug' bo'lsin barchaga

Ijtimoiy himoya. (Ijtimoiy himoya)

A. Madvaliyev tahriri ostida chiqarilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *bidoya* so'zi semasi izohlanmagan. Ammo biz bu o'rinda buyuk mutafakkir A. Navoiyning 1479-1480-yillarda tartib berilgan "Badoye ul-bidoya" deb nomlanuvchi to'plami nomiga e'tiborimizni qaratamiz. "Avvalo, devon nomining tarjimasima'nosi haqida: "*badoye*" so'zi "*bade*" ning ko'plik shakli bo'lib, uning ma'nolari quyidagicha: kamyob, mislsiz, ajoyib, yangi, yangi ixtiro' qilingan. "*Bidoya*" esa "*boshlanish, og'oz*" ma'nosini anglatadi. Bas shunday ekan, "Badoye ul-bidoya" – ajoyib yangiliklarning boshlanishi ma'nosini anglatadi."¹ Yuqoridagi to'rtlikda *bidoya* so'zi *yangi yilimiz* jumlasida ketma-ket qo'llanilgan. Yangi yil esa yilning boshlanishi, demak *bidoya* so'zining ma'nosi o'z-o'zidan izohlab berilmoqda.

Siddiq, siring *majozga* aytma,

Tanlagan o'z yo'lingdan qaytma.

Zikr ayla dilingda, baytda:

Intilganim o'zing Allohim. (Intilganim)

Majoz (arabcha - o'tish joyi, boshqacha aytish, nomlash, tasvirlash, tasviriy ifoda) ad. So'z yoki iboraning o'z ma'nosidan boshqa ko'chma ma'noda ishlatilishi va shunday ma'noda ishlatilgan so'z, ibora; metafora; allegoriya. (O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida) shoir *ma'juz* so'zini "*seni tushunmaydigan odam*" ma'nosida qo'llab, agnonimdan metafora sifatida ham foydalanmoqda.

Qiyomat bo'lgani shu – otang agar ranjisa,

Ranjisa emas hatto bir ozgina *injisa*. (O'talar zikrida)

Injisa so'zi A. Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi. " Injimoq. shv. Ranjimoq. *I njimasangiz, shu bolangizni bir yera yuborsangiz*. S. Siyoyev, Yorug'lik."² Demak, bu so'z ham bir tilda so'zlashuvchilarga butunlay tushunarsiz bo'lgani holda iste'molda qaysidir darajada mavjuddir. Shoir bir satrda ham *ranjisa*, ham *injisa* zo'slarini qo'llash orqali otani ranjitish qanchalar og'ir gunoh ekanligini yanada kuchaytirib bermoqda.

Turfa erur inson siyrati,

Turfa erur fe'l-u *tiynati*. (Dadasiga o'xshaydigan qiz)

Tiynat (arabcha – xulq-atvor, tabiat) kimsaga xos xarakter, fe'l atvor.³ *Tiynat* so'zi ham tilimizda mavjud bo'lib, iste'molda kam qo'llaniladi. Ijodkor agnonimlardan foydalanganda unga shunday oqilona yondoshganki, har bir agnonim yonida izohi,

¹ <http://khurshiddavron.chat.ru/B.Valixojayev.Alisher> Navoiy she'riyati.pdf

² O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida 210-bet

³ 86-bet

ma'nodoshi bilan birga kelmoqda. Bu ijodkorning oddiy ijodkor emas, balki, tilshunos olim ham ekanligining dalolatidir.

FGDSchi ko'rar ichimni,
Ichakdagi ko'zlari bilan...

FGDS (fibroesophagogastroduodenoskopiya) maxsus tibbiy tekshiruv bo'lib, u orqali qizilo'ngach, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakni maxsus asbob yordamida tekshiriladi. O'rganish maxsus endoskop qurilma si yordamida amalga oshiriladi. Shifokorlar buni qisqacha edoskopiya deb atashadi.¹

FGDS atamasini o'qiganda o'quvchilar so'zni qaysidir sohaga tegishli ekanligidan habardor bo'ladilar, lekin "buni faqat ma'lum bir soha egalari biladi" degan fikrga egalar. Bu holat ham tilshunoslikda aynan agnonim deb baholanadi.

Shoir mana shunday tibbiyotga oid so'zlarni qo'llash orqali kitobxon ko'z o'ngida aynan kasalxona muhiti, unda bo'lib o'tayotgan jarayonlarni shakllantirishga harakat qilgan.

Biz yuqorida shoirning agnonim qo'llashdagi mahorati haqida aytib o'tgandik. Fikrimizning isboti sifatida *FGDS* agnonimini qo'llashdagi usulini tahlil qilib o'tamiz. *FGDSchi ko'rar ichimni*, demak bu jarayon ichki organ tekshiruviga aloqador, *ichakdagi ko'zlari bilan*, demak ichkariga ichakka o'xshash ingichka va ayni paytda "ko'zli" –ko'radigan moslamali narsa kiritiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchi she'r orqali tibbiy jarayon haqida ham tushunchaga ega bo'lmoqda. Bunday agnonimlarni shoir ijodida ko'plab uchratish mumkin.

Biri tomoq, quloq duxtiri,

Biri esa zo'r *dermatolog*...

Ortopeddan doim ko'nglim to'q

Qolmagayman hassa tayanib...(Telegramdagi shifokorlarim)

Kingadir yuraging talpinar, chopar

Ko'rishmoq istaysan bo'lsa imkoni,

So'zidan yuraging halovat topar –

Demak, yaqin ekan *BIOMAYDONI*. (Biomaydon)

Yo'ldosh bo'lmas senga xech *kas*,

Bu keng olam bo'lar qafas,

Ololmaysan hatto nafas,

Olloh o'zi yo'l bermasa. (Olloh o'zi yo'l bermasa)

Menga muhtoj bir *kasga*,

Vaqt topmadim bir pasga,

Urdimmi o'zim pastga,

¹ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1159434>

Men xato qilgan kunlar. (Men xato qilgan kunlar)
Shogirdlar *qavmi*ga bor shunday naql:
“Ustozdan o‘tmasang sen shogird emas”. (O‘xshamas)
Siz *partizan* bo‘lgan ekansiz,
Quritay deb dushman izini (Urush ko‘rgan bobomga maktub)
Bo‘ladigan gapni gapir, ey, banda,
Tokay *bachki* fe‘ling qilmaysan kanda. (Had)
Ammo *sinovdard*ga topolmay chora,
Boshini egmoqda tabib bechora. (Sinovdard)

Xulosa qilib aytganda, Siddiq Mo‘min she‘rlarida agnonimlarning barcha turlaridan mohirona va unumli foydalanilgan. Ijodkor asarlari o‘quvchiga estetik zavq berish bilan birga ular leksikasining boyishiga, tafakkurining o‘shishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.: -2008
2. Siddiq Mo‘min. Biomaydon. “Farg‘ona” nashriyoti – 2022.
3. Siddiq Mo‘min. Mendan mehr kutayotganlar. “Farg‘ona” nashriyoti – 2007.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent
5. Дондокова, А. Б. Агнони́мы в произведениях А. П. Чехова и Л. Н. Андреева, русских писателей конца XIX — начала XX века / А. Б. Дондокова, Ц. Л. Дондокова. — Текст : непосредственный // Юный ученый. — 2022. — № 1 (53). — С. 4-11. — URL: <https://moluch.ru/young/archive/53/2732/> (дата обращения: 23.08.2023).
6. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1159434>
7. <http://khurshiddavron.chat.ru/B.Valixo'jayevev.Alisher> Navoiy she'riyati.pdf